

“Sariq devni minib” romanining bolalar ruhiyatiga ta’siri va pedagogik-tarbiyaviy jihatlari

Salomat Raximboyeva Fayzulla qizi

XX asr o‘zbek bolalar adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biri Xudoyberdi To‘xtaboyev bo‘lib, uning asarlari nafaqat badiiy mahorati, balki pedagogik mazmuni, ruhiy tarbiya va axloqiy qadriyatlarni singdirishdagi samaradorligi bilan ajralib turadi. “Sariq devni minib” romani bolalar tafakkurida voqelikni idrok etish, ezgulik va yovuzlikni farqlash, mustaqil fikrlashga o‘rgatish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Asarning asosiy qahramoni – Hoshimjon obrazi orqali yozuvchi bolalar tafakkurining tabiiyligi, hayotga sodda va samimiy qarashlarini badiiy ifodalaydi. Hoshimjonning orzulari, soddaligi, ayni paytda o‘z g‘ururini himoya qilishdagi qat’iyligi o‘quvchi bolaning ichki dunyosiga bevosita ta’sir etadi. Romanda bolaning fantaziya olami bilan real hayot o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘ziga xos badiiy vositalar orqali ifodalangan. Bu esa o‘quvchining tasavvurini kengaytiradi, ijodiy tafakkurini faollashtiradi va ruhiy yetuklikka undaydi.

“Sariq devni minib” romani bolalar psixologiyasi nuqtai nazaridan o‘rganilganda, asar bolalarning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari va o‘zaro munosabatlaridagi murakkabliklarni badiiy vositalar orqali aks ettiradi. Hoshimjonning obrazida emotsional o‘shish va shaxsiy rivojlanish jarayoni aniq seziladi: u o‘z ichki dunyosidagi qo‘rquv, xavotir, g‘urur va orzu-umidlarni boshdan kechiradi, ularga turli vaziyatlar orqali yechim topishga intiladi. Bolalar ruhiyatidagi shunday murakkab psixologik holatlarni tasvirlash orqali muallif o‘quvchi ongini rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki bola o‘z kechinmalarini qahramonning harakatlari bilan solishtirib, ularni tahlil qiladi.

Bundan tashqari, asar bolalarda emotsional barqarorlik va moslashuvchanlikni shakllantirishga yordam beradi. Qahramonning turli psixologik sinovlardan o‘tishi o‘quvchi bolaning o‘z qobiliyatiga ishonchini mustahkamlaydi, ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu tariqa, “Sariq devni minib” romani bolalarning

shaxsiy va emotsional rivojlanishiga, ijtimoiy tajribani anglashiga bevosita pedagogik psixologik ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, "Sariq devni minib" bolani o'z fikrini ifodalashga, mustaqil qaror qabul qilishga, ijodiy o'ylashga o'rgatadi. O'qituvchilar bu asardan dars jarayonida foydalanish orqali o'quvchilarda axloqiy tafakkur, estetik did va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishlari mumkin. Romanning asosiy g'oyasi – ezgulik yovuzlikni yengadi, halollik va samimiyat eng katta qudratdir degan hayotiy falsafani bolalar ongiga singdiradi.

Asar o'quvchida shaxsiy tajriba asosida xulosa chiqarish, to'g'ri tanlov qilish va hayotiy masalalarda mas'uliyatni his etish kabi ko'nikmalarni tarbiyalaydi. Bu jihatdan "Sariq devni minib" romani nafaqat badiiy, balki amaliy-pedagogik ahamiyatga ham ega. Asardan ta'lim jarayonida foydalanish o'quvchilarda muloqot madaniyati, do'stlikka sadoqat, mehnatsevarlik va odamlarga mehr-oqibat bilan munosabatda bo'lish kabi insoniy qadriyatlarni singdiradi. Shu bois, romanni o'qish jarayoniga kiritish bolalar shaxsiy rivojlanishiga, ularning ma'naviy yetuklik va ruhiy barqarorligiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" romani bolalar adabiyotida ruhiy-pedagogik fenomen sifatida e'tirof etiladi. Asar o'quvchilarga hayotni to'g'ri idrok etish, yaxshilikni qadrlash, rostgo'ylik va insoniylik g'oyalari sodiq qolish zarurligini singdiradi. Romanni o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish bolalarda nafaqat axloqiy fazilatlarni, balki emotsional intellekt, mustaqil fikrlash, estetik did va hayotiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xtaboyev X. Sariq devni minib. – Toshkent: "Yosh gvardiya" nashriyoti. 2019.
2. Karimov A. O'zbek bolalar adabiyotining psixologik asoslari. – Toshkent, 2018.
3. Mamatov B. Adabiyot orqali tarbiya. – Samarqand, 2020.
4. G'afurova M. Zamonaviy ta'limda adabiy asarning tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent, 2021.